**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI**
**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Rektor _____________ Sh.Sirojiddinov
2023-yil 28-avgust

# MATN VA UNI TALQIN QILISH TAMOYILLARI

## FANINING SILLABUSI

**(qishki)**

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200 000 – San’at va gumanitar fanlar |
| **Ta’lim sohasi:** | 230 000 – Tillar |
| **Magistratura mutaxassisligi:** | 70230301– Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (O‘zbek tili) |

**Toshkent-2022**

| Fan/modul kodi | Fan/modul turi | Ta'lim tili | Ishlab chiqilgan o'quv yili |
|---|---|---|---|
| | tanlov | o'zbek | 2023/2024 |

| Semestr | Har bir semestrdagi modulning nomi | ECTS - Kreditlar | Haftalik dars soatlari | O'quv mashg'ulotlari (soat) | | | | | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Jami: | ma'ruza | seminar | amaliy | laboratoriya | | |
| 1 | Matn va uni talqin qilish tamoyillari | 4 | 4 | 60 | 30 | 0 | 30 | 0 | 60 | 120 |
| | Jami: | 4 | 4 | 60 | 30 | 0 | 30 | 0 | 60 | 120 |

| Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar | |
|---|---|
| 1. | Adabniy manbalar bilan ishlash amaliyoti (**302AMIA 1-2 10**) |
| 2. | Matnshunoslik (302 M 3 5 08) |
| 3. | Matnshunoslik nazariyasi (**302MN 1-2 9**) |

## 1. FANNING MAZMUNI

**Fanni o'qitishdan maqsad** – magistrant talabalarga badiiy voqelikni anglashda talqin nazariyasining ahamiyatini ilmiy asosda ko'rsatish, talqin kategoriyasining mumtoz va zamonaviy adabiy matnlarni tadqiq qilishga oid asosiy qonuniyatlarini bilan tanishtirish.

**Fanning vazifasi** – matnning tashqi va ichki jihatlarini bir-biriga bog'liq, butun holda ko'ra bilish, talqinda qat'iy kompleks analiz yondashuv uslubiga amal qilish, qadim sharh ilmi va zamonaviy germenevtika tarixi bilan bog'liq mavzularni ilmiy analiz asosida talqin qilishni tushuntirish, manbashunoslik va matnshunoslik yo'nalishida tadqiqot olib borayotgan talabalarga germenevtik talqin metodlari va metodologiyasidan samarali foydalanishni o'rgatish.

## 2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**

- matn va talqin muammolari bo'yicha germenevtik mushohada tabiati, mumtoz matn zamiridagi tagma'noni anglash, manbashunoslik va matnshunoslikning eng so'nggi yutuqlari asosida germenevtik talqin mohiyati,



xususan, badiiyatni his etish, anglash xislatlari haqida ***tasavvurga ega bo'lishi (bilim);***

- mustaqillik yillarida manbashunoslik va matnshunoslik sohasi metodologiyasi yangilanayotgani: Sharq va G'arb ilmiy-falsafiy qarashlari tadqiq usullari takomillashayotgani, yangi talablar va tamoyillar asosida qo'lyozma va toshbosma nusxalarni talqin ***qila bilishi va ulardan foydalana olishi (ko'nikma);***

- matn talqini bo`yicha adabiy-ilmiy izlanishlar orqali nazariy konsepsiyalarni ishlab chiqishda o'zbekona tafakkur tabiatidan kelib chiqishga intilishning tobora chuqurlashayotganini tushuntirish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak (malaka).***

## 3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

- ma'ruzalar;
- amaliy (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;

jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

## 4. TALABALAR KREDITLARNI OLISH TARTIBI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom"ning 15- va 30-bandlariga asosan Folklor matnshunosligi muammolari fanidan 120 **soat** 1 semestr *o'quv yuklamasini o'zlashtirgan*, fan dasturi (sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra *ijobiy baholanib kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan* talabaga 120 **soat** 1 semestr 4 **kredit beriladi.**

Talaba belgilangan *ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda* **kreditlar berilmaydi.**

Talabalarning bilimini baholash O'zbekiton Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi**Nazoratlarni amalga oshirish tartibi va baholash mezonlari**

**Talabalarning bilimini baholash mezonlari:**

***Dastur tuzuvchilar uchun eslatma:*** *professor-o'qituvchi tomonidan fanning xususiyatidan kelib chiqib* ***baholash usullari*** *fan yoki modul doirasidagi talabaning yutuqlarini aks ettiruvchi va tasdiqlovchi* ***yozma, og'zaki, amaliy ish, loyiha, portfolio*** *va* ***nazoratlar*** *kabi turlardan tarkib topgan* ***baholash mezonlari aks ettirilishi shart.***

**5 (a'lo) baho** -talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho;**

**4 (yaxshi) baho** - talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho;**

**3 (qoniqarli) baho** - talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho;**

**2 (qoniqarsiz) baho** - talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

*Izoh:* Nazorat turlari, shakllari va soniga keyingi semestrlar davomida kafedra yig'ilishi qarorlariga asosan o'zgartirish kiritish huquqi beriladi.

Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muyyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

**TALABALARNI BAHOLASH TARTIBI:**

Talabalarning bilimini baholash tartibi O'zbekiton Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

**1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.**

**Oraliq nazorat:** O'tilgan mavzular asosida og'zaki shaklda o'tkaziladi.

**Yakuniy nazorat:** Semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha yozma shaklda o'tkaziladi.

***Izoh:** Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin.*

*Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.*

*Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muyyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.*

**2. Talabalarning bilimi baholash mezonlari:**

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho;**



talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho;**

talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho;**

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

## 5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

**2-SEMESTR**

**1. Ma'ruza mashg'ulotlari**

| № | Ma'ruza mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| 1 | Matn va uni talqin qilish tamoyillari fanining predmeti, o'rganish sohasi. Matn va uni talqin qilish tamoyillarining tarkibiy qismlari: matnshunoslik, adabiy manbashunoslik. | Matnni tushunish va bilish. Ma'no. Tushuntirish va tushunishning uzviyligi. Ilmiy tadqiqotda tushunish va tushuntirishning ahamiyati. | 2 |
| 2 | Mumtoz asarlarini sharhlash va talqin qilish masalasi. | Matnni zamiridagi ma'no tafovutlarini tahlil qilish usuli. Muallif matni. Xatoliklarini aniqlash. Matnni ongli ravishda o'zgartirish. Konyektura yo'li bilan matnni tiklash usuli. Matnlarni klassifikatsiya qilish usuli. Tekstologik belgilarni aniqlash usuli | 2 |
| 3 | Germenevtika tarixi. | Matnni talqin qilish nazariyasi. Germenevtika. Ma'noni talqin qilish. Tushunish. Tushuntirish. Izohlash. Sharhlash. Falsafa. Tarix. Psixologiya. Filologiya. San'atshunoslik. | 2 |
| 4 | Bugun: matn va talqin masalalari. | Talqin mas'uliyati. "Badiiy talqin" tushunchasi. "Adabiy asar talqini" ma'nosi. Bu ikki tushuncha bir-biridan farqlanadi: ularning birinchisi ijod jarayoni bilan, ikkinchisi adabiy asarni o'qish (uqish) jarayoni bilan bog'liq. | 2 |
| 5 | Tahlil, tadqiq, talqin. | Matn va uni talqin qilish. Mumtoz asarlarni sharhlash va talqin qilish tamoyillari. Germenevtika ta'limotida tushunish va tushuntirish kategoriyasi. | 2 |
| 6 | Mumtoz adabiy matnlarni o'rganish muammolari. | Muammo. Ilmiy muammo. Metod tushunchasi. Muammo va masala. | 2 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Muammoli vaziyat va uning yechimi: mumtoz adabiy matnlarni o'rganishdagi o'rni. | | |
| 7 | "Qutadg'u bilig" matnlarida umumlashma xulosalar talqini. | Yusuf Xos Hojib XI asrning donishmandi, ilm-ma'rifatning jarchisi hamda homiysidir. U ilm-ma'rifatga saodatning kaliti deb qaraydi, shuning uchun ham o'z dostonini "Qutadg'u bilig" deb ataydi hamda unda ilm-ma'rifatni targ'ib qiladi, olimlarni ulug'laydi, davlat boshliqlarini, ilm-fan ahllarini saroyga jalb etishga, ulardan ta'lim olishga va ularning maslahatlari bilan ish ko'rishga chaqiradi. | 2 | |
| 8 | Navoiy asarlari germenevtikasi. | Navoiy asarlarini matniy talqin etish, sharhlash, undagi ramz va timsollar tadrijini o'rganish. Matniy tadqiq etish usullari. Matnni o'rganishning zamon talablari darajasidagi ilmiy tahlil etilgan mavzularda aks ettirish. Zamonaviy pedagogik tajribalar. Germenevtika. Ma'noni talqin qilish. | 2 | |
| 9 | Navoiy asarlarini sharhlash va talqin qilishning amaliy asoslari. | "Ilk devon"ga tavsif. "Badoyi' ul-bidoya" va "Navodir un-nihoya". "Badoyi' ul-bidoya" debochasida devon tartib berish masalalari. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining yaratilish tarixi. Kulliyotning tarkibiy tuzilishi. "Xazoyin ul-maoniy"ga kirmay qolgan she'rlar. Navoiy ijodining ilmiy mezonlar asosida o'rganilishi. | 2 | |
| 10 | Germenevtika ta'limotida tushunish va tushuntirish kategoriyasi. | Tushunish va bilish. Ma'no. Tushuntirish va tushunishning uzviyligi. Ilmiy tadqiqotda tushunish va tushuntirishning ahamiyati. | 2 | |
| 11 | Navoiyning "Munojat" asari tahlili va talqini. | Munojot – Allohga iltijo tarzida yaratilgan nasriy asar bo'lib, "Hamd", "Na't" va "Munojot" deb atalgan uch qismni o'z ichiga oladi. | 2 | |
| 12 | Navoiy asarlarida Payg'ambar timsoli va talqini. | Navoiyning asarlarida Rasululloh obrazi. Har bir asarda o'zgacha badiiy-falsafiy talqin, ta'rif va | 2 | |



| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | tavsiflari. Rasulullohning fazilatlarini to'liq ifodalash darajasi. | | |
| 13 | "Timsol tadriji" va talqini. | Matnshunos ham talqinni o'quvchi sifatida boshlaydi, ya'ni u ham talqinni talqin qiladi – timsollar vositasida aks ettiril-gan voqelikni tasavvurida qayta yaratadi. Biroq uning talqini shu amalning o'zi bilan cheklanmay-di, u tadqiq ham etadi. | 2 | |
| 14 | "Navodir ush-shabob"dagi hamdlar tahlili va talqini. | Hamd (arab. – ulug'lanish, ta'riftavsif, madh) – biror kimsa sha'niga maqtov she'r. "Navodir ush-shabob"da Allohni madh etuvchi hamdlar, doston muqaddimasining maxsus bobi. Hamd- g'azallar 2 xil bo'ladi: tavhid hamdlar, munojot hamdlar. qadimgi turkiy, arab va fors adabiyotida payg'ambarlar, shohlar sha'niga ham hamdlar bitilishi. | 2 | |
| 15 | Tanqidchilik ilmining adabiyot rivojidagi o'rni. Adabiy tanqid ildizi, mohiyati, falsafa, estetika, lingvistika. Adabiy tanqid – adabiyotshunos-likning tarkibiy qismi: mushtarak va xos xususiyatlar. Tanqidning fan va san'atlik mohiyati. Adabiy tanqid metodologiyasi. | Tanqid. Munaqqid. Adabiy tanqid metodologiyasi. Adabiy tanqid. | 2 | |
| | | | **Jami:** | **30 s.** |

## 2. Amaliy mashg'ulotlar

| № | Amaliy mashg'ulot mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| 1 | "Qutadg'u bilig" matni tabdili va talqini. | "Qutadg'u bilig" matni talqini. "Ma'no" tushunchasi. Semiotika. Simvol. Tushuntirish va tushunish-ning o'zaro nisbati ma'naviy, madaniy, falsafiy, ilmiy manzara. | 2 |
| 2 | Lutfiyning g'zallari talqini. | Lutfiyning ag'zallari tamoman turkona ruhda bitilgan. An'anaviy yetti baytdan iborat. Ishq mavzusi qalamga olingan. Biroq bu yerda zimdan ilohiy ishq ko'zda tutilganini unutmaslik kerak. G'azalning tili – sodda, ravon. | 2 |
| 3 | "Gadoiy devoni" dostoni talqini. | "Devoni Gado". Devon qo'lyozmasi. | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | Mikrofilm. Fotonusxa. Forsiydagi she'rlar. Gadoiy she'rlari. G'azalning lisoniy sharhi. | |
| 4 | Atoiy g'azallari talqini. | Atoyi g'azallari. Mumtoz she'riyat. Devon tuzish. O'tmishda g'azal yozmagan ijodkorning devon tartib berishi mumkin bo'lmagan. | 2 |
| 5 | "Majolis un-nafois" va "Nasoyim ul-muhabbat" tazkiralari talqini. | Muallif tilidan bayon qilingan ma'lumot, eslatma, zikrlarda qo'llanilgan bo'lib, buning yorqin misoli "Majolis un-nafois" va "Nasoyim ul-muhabbat" tazkiralaridir. | 2 |
| 6 | "Hayrat ul-abror" debochasi talqini. | Navoiy "Xamsa"sidagi birinchi doston "Hayrat ul-abror" ("Yaxshi kishilarning hayratlanishi") 1483 yilda yaratilgan edi. Doston 3988 baytdan iborat bo'lib, 63 bob, 20 maqolat va 20 hikoyatdan tashkil topgan. Shundan kirish (muqaddima) 21 bobni o'z ichiga oladi. | 2 |
| 7 | "Boburnoma"da shaxslar talqini. | "Boburnoma" – memuar janrning nodir namunasi. "Boburnoma" Boburning jahoniy shuhratini ta'minlagan shoh asarlari. Tarixiy shaxslar talqini. | 2 |
| 8 | "Lison ut-tayr" hikoyatlari tahlili. | Doston tarkibidagi hikoyatlar o'zlarining badiiy mazmunini ixcham tasvirlash manerasi. Satira tig'ining beomonligi, nozik yumori, realistik elementlarga boyligi hamda o'zbek adabiyoti tarixida yangi hodisa hisoblangan bir qator tragikomik obrazlar mavjudligi bilan ham diqqatini jalb etadi. Navoiy ijodining eng yukori cho'qqisini tashkil etadi. | 4 |
| 9 | Alisher Navoiy asarlariga qilingan izohlar talqini. | Matn tahriri. Gloss. Interpolyatsiya. Konyektura. Senzura va avtotsenzura. Badiiy asar strukturasi. Badiiy asar semiotikasi. | 2 |
| 10 | Navoiyning "Farhod va shirin" tabdillarining qiyosiy-tipologik tadqiqi. | Farhod – ilohiy ishq yo'liga kirgan solik timsoli. Shirin – ilohiy mazhar, Dostondagi ramziy timsollar. Dostonning badiiy xususiyatlari. Tasavvufda ajdarho – nafs timsoli. | 2 |
| 11 | Ruhiy poklanish kechinmalari talqini (Mashrab ijodi misolida). | Mashrabning mohiyatan inson qadri-sharafi. Ma'naviy kamolot. Mashrab ijodi va tasavvuf. Ramz-timsollar. | 4 |
| 12 | "Sabot ul-ojizin" matni va talqini. | "Sabot ul-ojizin" asarining tuzilishi. Nusxa, adabiy versiya, ilmiy-tanqidiy matn, matnshunoslik, tabdil, muqoyasa. | 2 |



| | | | |
|---|---|---|---|
| 13 | Qodiriy ijodi va germenevtik tafakkur. | Matn talqini nazariyasi va amaliyoti. Germenevtika – talqin etish san'ati. Adabiy germenevtika. Falsafa va adabiyotshunoslik. | 2 |
| 14 | Navoiy g'azallarida tabiat tasviri talqini. | Navoiy g'azallari talqini. "Ma'no" tushunchasi. Semiotika. Simvol. Tushuntirish va tushunishning o'zaro nisbati ma'naviy, madaniy, falsafiy, ilmiy manzara. | 2 |
| 15 | Navoiy g'azaliyotida timsol talqini. | Matnshunos ham talqinni o'quvchi sifatida boshlaydi, ya'ni u ham talqinni talqin qiladi – timsollar vositasida aks ettirilgan voqelikni tasavvurida qayta yaratadi. Lekin uning talqini shu amalning o'zi bilan cheklanmaydi, u tadqiq ham etadi. | 4 |
| | | **Jami:** | **30 s.** |

**3. Mustaqil ta'lim ishlari**

| № | Mustaqil ta'lim mavzulari | O'quv mashg'ulot turi nomi | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Baxtin M. "Эстетика словесного творчества" (M.: Искусство, 1979) kitobiga muhim izohlar berish. | ma'ruza | Baxtin M. matnshunos va adabiyotshunos. | 4 |
| 2 | Yo'ldoshev M. "Badiiy matn lingvopoetikasi" (T.: Fan, 2008) kitobi talqini. | ma'ruza | Yo'ldoshev M. matnshunos va manbashunos. | 4 |
| 3 | "Navoiy asarlari lug'ati" (tuzuvchilar: P.Shamsiev, S.Ibrohimov) da izohlar masalasi. | amaliy | Shamsiev P., Ibrohimov S. matnshunos va manbashunos. | 4 |
| 4 | Rustamiy A. "Adiblar odobidan adablar" (–T.: Ma'naviyat, 2003) kitobida ilmlar tasnifi. | ma'ruza | Rustamiy A. matnshunos, va adabiyotshunos. | 4 |
| 5 | Sarimsoqov B.I. "Badiiylik asoslari va mezonlari" (–T., 2004.) kitobida talqin masalasi. | ma'ruza | Sarimsoqov B.I. matnshunos va adabiyotshunos. | 4 |
| 6 | Sirojiddinov Sh. "XV–XVI asrlar tarixiy va tazkira-esdalik asarlarida Alisher Navoiy hayoti va faoliyati talqini" (Samarqand: Zarafshon, 1997) kitobi tahlili. | amaliy | Sirojiddinov Sh. matnshunos va manbashunos. | 4 |
| 7 | Erkinov A. Alisher Navoiy "Xamsa"si talqinining XV–XX asr manbalari. (Filol fan dok diss. –T., 1998) tadqiqoti tahlili. | ma'ruza | Hasanov B. matnshunos va manbashunos. | 4 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 8 | Karimov B. Germenevtik metod // Ruhiyat alifbosi. Adabiy-ilmiy maqolalar. (–T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2016. –364 b )ni tahlil qilish. | amaliy | Karimov B. matnshunos va adabiyotshunos. | 4 |
| 9 | Zohidov R. "Sabot ul-ojizin" manbalari, sharhlari va ilmiy-tanqidiy matnini kompleks o'rganish muammolari. (–T.: Turon zamin ziyo, 2015. –264 b) asari tahlili. | ma'ruza | Zohidov R. matnshunos va adabiyotshunos. | 4 |
| 10 | Abdulxayrov M. "Timsol tadriji"(–T.: Yashil yaproq nashr-matbaa uyi, 2021. –244 b) asari tahlili. | ma'ruza | Abdulxayrov M. matnshunos va adabiyotshunos. | 4 |
| 11 | Badiiy mazmun obyektiv va subyektiv ibtido birligi sifatida. | ma'ruza | Badiiyyat. Obyekt. Subyektiv ibtido . | 4 |
| 12 | Ijodkor dunyoqarashi va badiiy mazmun. | amaliy | Ijodkor. Dunyoqarash. Badiiy mazmun. | 4 |
| 13 | Konflikt va uning turlari. | ma'ruza | Konflikt. | 4 |
| 14 | Aruz atamasi haqida. Aruzda ritmik bo'laklar: harf, juzv, rukn, bahr. | amaliy | Aruz. Ritmik bo'laklar. Harf. Juzv. Rukn. Bahr. | 4 |
| 15 | Badiiy asar tili. Badiiy til tushunchasi. | ma'ruza | Badiiy asar tili. Badiiy til. | 4 |
| | | | **Jami:** | **60 s.** |

## 7. O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI


**Asosiy adabiyotlar**

1. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. –T.: Akademnashr, 2011. –326 b.
2. Sharq mumtoz poetikasi Hamidulla Boltaboyev talqinida. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi ilmiy nashriyoti, 2006; 2008.
3. Habibullayev A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. – T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2000. – 172 b.

**Qo'shimcha adabiyotlar**

4. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston, 2016.
5. Shleyermaxer F. Germenevtika. –SPb.: Yevropeyskiy dom, 2004, –S.13.
6. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. T.: Fan, 2008. –160 b.
7. Zohidov R. "So'fi Olloyor hikoyatlari". –T.: Muharrir, 2011. –141 b.
8. Sarimsoqov B.I. Badiiylik asoslari va mezonlari.–T.: 2004.–127 b.





9. Sirojiddinov Sh. So'fi Olloyor ilohiyoti.–T.: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi nashriyoti, 2001. –78 b.
10. A'zamov A. Munojotnoma. –T.: Mahnaviyat, 2001. –38 b.
11. Zohidov R. "Sabotul ojizin. Manbalar, sharhlar, ilmiy-tanqidiy matn". –T.: Turon zamin ziyo, 2015. – 258 b.
12. Eraliyev B. Majoziy muhabbat haqiqatlari (Alisher Navoiy asarlariga yangicha sharhlar). –T.: Akademnashr, 2015. – 80 b.
13. Abdulxayrov M. "Xamsa"ning to'liq tabdili. – T.: Yangi asr avlodi, 2021. – 1508 b.
14. Abdulxayrov M. "Navoiy asarlarining izohli lug'ati". – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 560 b.
15. Abdulxayrov M. "Timsol tadriji". –T.: Yashil yaproq nashr-matbaa uyi, 2021. –244 b.

**Axborot manbalari**

16. http://www.kutubxona.uz
17. http://www.literature.uz
18. http://www.ziyonet.uz
19. http://www.alishernavoiy.uz


**Fan o'qituvchisi to'g'risida ma'lumot**

| | |
|---|---|
| **Muallif:** | **"Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik" kafedrasi mudiri, f.f.d., dotsent**<br>R.Zohidov ____________ *(imzo)*<br>M.Abdulxayrov ____________ *(imzo)*<br>**"Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik"** kafedrasi dotsenti, f.f.d. |
| **E-mail:** | |
| **Tashkilot:** | Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti |
| **Taqrizchilar:** | B.To'xliyev ____________ *(imzo)*<br>TDSHU professori, filologiya fanlari doktori.<br>R.Zohidov ____________ *(imzo)*<br>ToshDO'TAU dotsenti, filologiya fanlari doktori. |

Mazkur sillabus universitet o'quv-uslubiy kengashining 2023-yil _____-avgustdagi _____-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

Mazkur Sillabus “Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik” kafedrasining 2023-yil ____-avgustdagi ___-sonli yig‘ilish bayoni bilan ma’qullangan.

| | |
|---|---|
| **O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i** | **V.Nazarov** |
| **Fakultet dekani** | **B.Abdushukurov** |
| **Kafedra mudiri** | **R.Zohidov** |